

BIZNES HUQUQIDA TERMINOLOGIYA

*Shomurodova Gulruhsor**Toshkent davlat yuridik universitetining 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: maqolada biznes huquqi tushunchasi uning asosiy manbalari, fanga doir terminlar chuqur o'rganiladi va tahlil qilinadi .

Kalit so'zlar; Tadbirkorlik huquqi , iqtisodiyot nazariyasi, depozit, depozit foizi budjet , budjet daromadlari , Bozor iqtisodiyoti .

Hozirgi rivojlanayotgan zamonda biznes huquqining o'rni juda katta bo'lib mamlakat daromadi va byudjeti ushbu huquq doirasi bilan tartibga solinadi xususan O'zbekiston Respublikasida 2018 yil Faol tadbirkorlik innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili deb nomlangan bundan ko'rish mumkinki yurtimizda ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biznes huquqi tadbirkorlik subyektlari ya'ni tashkilotlar fuqarolar va chet el fuqarolari o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va ushbu sohaning manbalariga biznesga oid qonunchilik hujjatlari kodekslar va xalqaro shartnomalar kiradi .Endilikda bozor iqtisodiyoti ayirboshlash tovar almashish xizmatlar ko'rsatish kabi keng doiralarni o'z ichiga qamrab olmoqda. Hozirda biznes huquqidagi terminlar muhim ahamiyat kasb etadi birinchidan ushbu soha nafaqat tadbirkorlik subyektlari balki butun davlat iqtisodiyotiga katta ta'sir o'tkazadi va biznes huquqidagi barcha terminlar ko'rib bilish va farqlay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik mulk huquqi subyektlarining tovar ishlab chiqishi xizmatlar ko'rsatish asosida foyda ko'rish daromad olish kabi masalalarni o'z ichiga oladi . Shuningdek biznes faoliyati doimo huquq doirasida bo'lishi kerak shu sababli ham O'zbekiston respublikasida biznesga doir ko'plab qonunlar qabul qilingan ya'ni tadbirkorlik huquqining manbalaridan biri qonunlardir . Bunda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi muhim ahamiyat kasb etadi ya'ni aynan ushbu kodeks bilan mulk huquqi , majburiyat huquqi , Tovar yetkazib berish , kontraktatsiya , lizing , pudrat, qurilish pudrati , tashish kredit va shunga o'xshash sohalar tartibga solinadi. «Tadbirkorlik faoliyatining erkinligi to'g'risidagi „qonun ham mavjud bo'lib ushbu qonun bilan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari kafolatlanadi desak ham bo'ladi shuningdek, □ Ijara to'g'risidagi, „ «Rieltorlik faoliyatini tartibga solish to'g'risidagi „ , « Raqobat to'g'risidagi „ , « Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqining kafolatlari to'g'risidagi „qonunlar bilan kafolatlanadi va tartibga solinadi .Tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi va huquqiy holati «Ma'suliyati cheklangan jamiyat va qo'shimcha ma'suliyatli jamiyatlar to'g'risidagi „ , « Bank va banklar faoliyati to'g'risidagi „ , «Fermer xo'jaligi to'g'risida, „ gi , « Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi , « Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi va boshqa qonunlar bilan

mustahkamlangan . Biznes subyekti foyda olishni maqsad qilgan holda bozor talablariga o'z faoliyatini moslashtirib xaridorga tovarlar ishlab chiqaradi . Biznesdan kutiladigan maqsad birinchi o'rinda daromad topishdir.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 41 moddasida har bir inson mulkdor bo'lish huquqiga egaligi ko'rsatilgan ya'ni mamlakatimizda tadbirkorlik sohasi qo'llab quvvatlanadi va katta imkoniyatlar yaratiladi hozirgi kunda huquqshunoslar va mutaxxasislar orasida Biznes huquqi tadbirkorlik huquqi o'rtasida anglashmovchiliklar mavjud ushbu terminlar biri biridfan o'zaro farq qiladi va ularni tahlil qiladigan bo'lsak .Tadbirkorlik huquqi tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi tadbirkorlik bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi va bozor sharoitida davlatning iqtisodiyotiga rahbarlik qiluvchi chora tadbirlarni ishlab chiquvchi huquqiy qoidalar yig'indisidan iborat.Biznes esa xorijdan kirib kelga so'z bo'lib asosan ushbu sohani biznes yoki tadbirkorlik tavakkalchilik va o'zining javobgarligi ostidagi huquqi deb atasak ham bo'ladi.Biznes inglizcha so'zdan olingan bo'lib «ish

mashg'ulot ,, degan ma'nolarni anglatadi , ya'ni tavakkalchilik yoki qarzga olingan vositalar hisobidan amalga oshiriladigan asosiy maqsadi foyda olish va o'z sohasini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuskor iqtisodiy faoliyat sanaladi. Biznes huquqidagi terminlarga ta'rif berishdan avval Terminologiya so'ziga ta'rif bermoqchiman : terminologiya bu muayyan fan sohaning terminlarga doir so'zlarini o'zida jamlovchi maxsus iboralar so'zlar yig'indisi hisoblanadi . Biznes huquqida va ijtimoiy hayotda turli terminlarga duch kelamiz misol uchun depozit va depozit foizi terminlari ko'p uchraydi ya'ni DEPOZIT banklarga saqlash uchun topshirilgan pul mablag'lari yoki qimmatli qog'ozlar 2 qarzdor kreditorga berib yuborish uchun sud muassasasiga ajratilgan pul summasi . DEPOZIT FOIZI - mablag' qo'yuvchining pulidan foydalangani uchun unga bank tomonidan to'lanadigan to'lov, ya'ni narx.daromad solig'i banklardan kredit olish va biznesni rivojlantirishga qaratilgani yaqqol misol bo'la oladi. Biznes huquqida turlicha terminlar mavjud bo'lib ushbu so'zlar ham muhim ahamiyatga ega ,hozirgi zamonda ko'pchilik biznes huquqiga oid terminlar mavjud bo'lib ularning mazmumini va farqlarini bilish muhim hisoblanadi . Bundan tashqari Byudjet va Byudjet daromadlari terminlari bir biriga o'xshash parallel ma'zmun hosil qilishi mumkin lekin ushbu tushunchalar bir xil ma'noga ega emas .

BUDJET (ingl. budget-sumka) - davlat, korxona, muassasa va shu kabilarning ma'lum muddat uchun oldindan belgilab qo'yiladigan kirimchiqim, daromad-buromad smetasi. Budjet markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining faoliyatini ta'minlash uchun pul mablag' lari yig'indisini shakllantirish va ishlatishning shakli. Budjet muayyan davr mobaynida alohida tashkilot yoxud davlat tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan sarf-xarajatlarni chamalash asosida hisoblab chiqilishi; daromad va xarajatlarni taqsimlash, tizimlashtirish; turli xil ishlarga mo'ljallangan sarf-xarajat va resurslarning (vaqt budjeti) taqsimlanishi.Bundan tashqari budjet huquqi tushunchasi

ham mavjud bo'lib unda asosan mamlakat budjet tizimiga kiruvchi manbalarni ko'rib chiqish ularni qabul qilish va ijro etishning me'yoriy qoidalari majmuidir . Shu sababli ham ushbu sohadagi yurist mutaxxasislar bu terminlar mazmunini puxta bilishi shart . BUDJET DAROMADLARI - O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, beg'araz va qaytarmaslik sharti bilan budjetga tushadigan va O'zbekiston Respublikasining markaziy hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarruf qiladigan pul mablag'lari. Keyingi termin bozor munosabatlari bilan bog'liq bo'lib quyidagicha ta'riflanadi BOZOR IQTISODIYOTI - iqtisodiy xatti-harakatlarning erkin, mustaqil ravishda yuz berishi va ularning bozor mexanizmi orqali birbiriga muvofiqlashuvidir. Bozor iqtisodiyoti erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, ijtimoiy mo'ljalga ega bo'lgan iqtisoddir. Bozor iqtisodiyoti g'oyat ko'p qirrali va murakkab iqtisodiyotdir. Bozor iqtisodiyotining quyidagi subyektlari mavjud: a) iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lgan mulk egasi yoki iste'molchi kishilar yoxud guruhlar. Bularga, odatda, yollanib ishlovchilar, yer egalari, kapital sohiblari, ishlab chiqarish vositasi egalari kiradi. Ular tadbirkorlik qilmaydi. Oz mulkidan daromad topadi yoki yollanib ishlaydi; b) firma, korxona, xo'jaliklar. Ular foyda olish yo'lida mustaqil ish yuritadilar, ishlab chiqarish omillarini ishga soladilar; d) davlat, aniqrog'i, davlatning barcha mahkama-yu tashkilotlari. Ular ham ishlab chiqarish, ham iste'mol bilan shug'ullanadilar. Bozor va unda ishtirok etadiganlarni nazorat qiladilar. Bozor iqtisodiyotining muhim belgisi iqtisodiy plyuralizm, ya'ni mulk shakllari va xo'jalikyuritish usullarining turlituman bo'lishidir. Bozor iqtisodiyotida ayrim mulkning hukmron bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Xo'jalik yuritish usullari ham turlicha bo'ladi: yakka tartibda, jamoaga uyushgan tartibda, sherikchilik paychilik yoki aksiyadorlik asosida, o'z mablag'iga yoki qarzga olingan mablag'ga tayanib xo'jalik yuritish, yer va boshqa vositalarni ijaraga olish va ishlatish kabilar bilan birgalikda boradi. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir. Iqtisodiy faoliyat erkinligining asosi ishlab chiqarish omillari yoki yaratilgan tovarlarning mulk obyekti bo'lishi, mulkdorlarning esa mustaqillikka ega bo'lishidir. Har bir korxona, tashkilot, ayrim fuqaro o'z ixtiyoriga ko'ra, qonun doirasida o'ziga ma'qul bo'lgan ish bilan shug'ullanadi. Bozor iqtisodiyoti erkin bo'lganidan, u har qanday iqtisodiy monopolizmni inkor etadi. Biroq u o'zining tartibga soluvchisiga ega. Ularning eng muhimi bozor narxidir. Narx oshib, tovarlar jadal sotilsa, foyda ko'payadi, ularni ishlab chiqarish kerak bo'ladi. Tovarlarni narxi pasayib, yaxshi o'tmasa, demak, ishlab chiqarishni qisqartirish yoki undan tamomila voz kechish kerak bo'ladi. Bozor munosabatlarining har bir subyekti - korxonami, davlatmi, alohida kishimi, buning ahamiyati yo'q , o'z manfaatini ko'zlab faoliyat ko'rsatadi. Ammo ko'rko'rona, xohlagan ishini qilolmaydi, chunki u bozor bilan hisoblashishga majbur, aks holda, uning ishi yurishmaydi, xonavayron bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti shunday iqtisodiy

munosabatlar va ular ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantiruvchi kuchni yuzaga chiqaradi. Ular har qanday iqtisodiyot kabi iqtisodiy qonunlar ta'sirida rivojlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak hozirgi jadal rivojlanib kelayotgan zamonda biznes huquqi va ushbu sohaga doir terminlarni bilish va ularning o'zaro farqini bilish zarur aks holda turli tushunmovchiliklar vujudga kelishi mumkin. Misol uchun yuqorida qayd etib o'tganimizdek byudjet va byudjet daromadlari terminlari turli xil ma'no hosil qiladi masalan : byudjet korxona muassasaning mablag'lari ularning smetasi hisoblansa , byudjet daromadlari davlat organlarining o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sarf xarajatlari ekanligini ko'rishimiz mumkin .tadbirkorlik huquiga doir qonunlarni va ularning ma'nosini tushunish nafaqat yuristlar balki fuqarolar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Mustafakulov, SH. I. Iqtisodiy atamalarning izohli lug'ati [Matn] : lug'at / SH.I. Mustafakulov, O.A. Raximberdiyev, M.SH. Egamberdiyeva - Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019 489 b.
- 2.Tadbirkorlik(biznes) huquqi.2019
- 3.Biznes huquqi. Tadjibayeva M. 2025
4. Тadbirkорлик ҳуқуқи.2002